




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

06 iyul, 2026 yil

SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (20 oktabr 2025 yildan 06 iyul 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,186% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 6,198% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,038% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,35% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 9,408% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 9,679% gacha o'zgarib turdi.



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,061% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,053% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,624% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,226% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,211% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-6,724% gacha o'zgarib turdi.




AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,378% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,363% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,059% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,5-3,73% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,62% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko'rsatkich ko'tarilib — 3,66% darajasida qoldi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,321% (3 oylik) va 2,554% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,639% (6 oylik) va 2,417% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 907,4 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 111,0 million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 12 060 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib 11 973 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya o,18% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




06.06.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Poytaxt bank*da qayd etilgan – 11 973 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 12 015 – 12 100 so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *Ipoteka bank*da qayd etilgan – 12 035 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 11 980 – 11 860 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi



EUR-USD dinamikasi



Dollar davrni pasayish bilan yakunladi

2026-yil 29-iyun – 3-iyul davri yakunlariga ko'ra, USD/RUB kursi qisqa muddatli rubl zaiflashuviga qaramay, nisbatan barqaror dinamikani namoyish etdi. 1-iyul kuni dollar kursi 79,5 rubl darajasigacha ko'tarilgan bo'lsa, keyingi savdo sessiyalarida korreksion harakat kuzatildi va kurs 78,0 rublgacha pasaydi. Natijada, ko'rib chiqilayotgan davr boshiga nisbatan rubl 0,9 foizga mustahkamlandi. Ushbu dinamika valyuta bozorida talab va taklif o'rtasidagi muvozanat saqlanayotganini ko'rsatadi. Hozirgi tebranishlar asosan qisqa muddatli xarakterga ega bo'lib, AQSh dollari bo'yicha barqaror o'sish trendini shakllantirmadi.



RUB/CNY kursi tendentsiyasiz barqarorlikni saqlamoqda

2026-yil 29-iyundan 2-iyulgacha bo'lgan davrda RUB/CNY kursi cheklangan diapazonda, 10,8–11,2 oralig'ida harakat qildi. Mahalliy maksimum 1-iyul kuni 11,2 darajasida qayd etildi, shundan so'ng kurs 10,9 gacha mo'tadil pasaydi. Ko'rib chiqilayotgan davrda sezilarli narx impulsarining kuzatilmagani bozor harakatining qisqa muddatli va cheklangan xarakterga ega bo'lganini ko'rsatadi. Umuman olganda, bozorda talab va taklif muvozanati saqlanib, aniq yo'nalishdagi trend shakllanmadi. RUB/CNY kursidagi past volatillik qisqa muddatli istiqbolda sezilarli bosim omillari mavjud emasligini ko'rsatmoqda.




EUR/USD tor savdo diapazonida mustahkamlandi


2026-yil 29-iyun – 3-iyul davri yakunlariga ko'ra, EUR/USD valyuta juftligi past volatillik sharoitida 1,1423–1,1472 diapazonida harakat qildi. Davr boshida kurs 1,1430–1,1436 darajalari atrofida barqaror bo'lib, 1-iyul kuni 1,1423 gacha pasaydi. Keyinchalik tiklanish kuzatilib, 2-iyul kuni kurs 1,1472 darajasidagi maksimumga yetdi. 3-iyul holatiga ko'ra, kotirovkalar 1,1458 darajasigacha tuzatildi va shakllangan diapazon ichida qoldi. Juftlikdagi sust dinamika Yevropa Markaziy banki va Federal zaxira tizimining foiz stavkalari bo'yicha kutilmalari mo'tadil qayta ko'rib chiqilgani hamda muhim makroiqtisodiy omillarning yetishmasligi bilan izohlanadi. Shuningdek, global bozorlardagi riskka bo'lgan ishtaha o'zgarishlari ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, ular aniq yo'nalishdagi harakatni shakllantirmadi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlar dinamikasi
(bir untsiya uchun, AQSh dollarida)



Brent nefti narxlar dinamikasi
(bir barrel uchun, AQSh dollarida)



TTF gaz narxlar dinamikasi
(megavatt-soat uchun, AQSh dollarida)



Oltin haftani ishonchli o'sish bilan yakunladi



Hafta yakunlariga ko'ra, oltin bozori barqaror o'sish tendensiyasini namoyish etdi: narx bir untsiya uchun 4016,0 dollardan 4174,9 dollargacha ko'tarildi. Qisqa muddatli korreksiya so'ng kotirovkalar tezda tiklandi va mahalliy maksimumni yangiladi, bu esa qimmatbaho metallga bo'lgan yuqori talab saqlanayotganini ko'rsatadi. Ijobiy dinamika bozorda xaridorlar ustunligini va investorlar kayfiyatining mustahkamlanayotganini aks ettiradi. Mavjud qo'llab-quvvatlovchi omillar saqlanib qolsa, qisqa muddatli texnik korreksiya ehtimoliga qaramay, oltin narxi keyingi o'sish salohiyatini saqlab qolmoqda.

Brent nefti pasayishdan so'ng barqarorlashdi



Hafta yakunlariga ko'ra, Brent neftining narxi bir barrel uchun 73,15 dollardan 72,12 dollargacha pasaydi va qariyb 1,4 foizlik kamayishni qayd etdi. Davr boshidagi pasayishga qaramay, 1-iyuldan boshlab kotirovkalar bosqichma-bosqich tiklana boshladi, bu esa bozor barqarorlashayotganini ko'rsatadi. Narx 71 dollar darajasidan yuqorida mustahkamlanib, talab va taklif o'rtasidagi muvozanat saqlanayotganini aks ettirdi. Qisqa muddatli istiqbolda Brent dinamikasi jahon neft bozoridagi fundamental omillar hamda investorlarning makroiqtisodiy kutilmalariga bog'liq bo'ladi.

TTF gazi haftani ijobiy dinamika bilan yakunladi



Hafta yakunlariga ko'ra, TTF gazining narxi bir megavatt-soat uchun 48,7 dollardan 51,2 dollargacha oshdi. Davr boshidagi kichik tebranishlardan so'ng kotirovkalar ishonchli o'sish yo'nalishiga o'tdi va 50 dollar/MVt-soat darajasidan yuqorida mustahkamlandi. Ushbu dinamika bozor faolligining oshgani va Yevropa gaz bozorida talab saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Mavjud fundamental omillar davom etsa, gaz narxlari kelgusida ham o'sish yo'nalishida harakatlanish imkoniyatini saqlab qoladi.